

## **XORIJIY TILLARNI O’RGANISHDA PEDAGOGIKANING O’RNI**

***Hamroqulova Hosila***

*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

***Ilmiy rahbar: Sh.M.Mirzaxmadov***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorijiy tillarni o’rganishda pedagogika fanining tutgan o’rni, uning metodik va nazariy asoslari yoritilgan. Til o’rganish jarayonida o’qituvchining roli, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalar orqali samaradorlikni oshirisga oid ilmiy tahlillar qayd etilgan. O’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim va motivatsiya bilan bog’liq yondashuvlar ham tavsiflab o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** xorijiy til, pedagogika, metodika, kommunikativ yondashuv, interaktiv usullar, motivatsiya, psixolingvistika.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida xorijiy tillarni bilish nafaqat ijtimoiy zarurat, balki har bir inson uchun raqobatbardoshlik omilidir. Til – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki madaniyat, tafakkur va dunyoqarash ko’zgusidir. Shu sababli, xorijiy tilni o’rganish chuqur pedagogik yondashuvni talab qiladi. Faqatgina lug’at va grammatikani o’rgatish emas, balki shaxsga yo’naltirilgan, interaktiv va motivatsion metodlar orqali ta’lim jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy ta’limning asosiy talabi bo’lib bormoqda. Xorijiy tillarni o’rganishda quyidagi omillar alohida ahamiyt kasb etadi:

**1. Pedagogik yondashuvning o’rni.** Xorijiy tilni o’rganish – bu murakkab, ko’p bosqichli va individual jarayon bo’lib, unda pedagogik yondashuvlar muhim rol o’ynaydi. O’quvchilar individual qobiliyat, qiziqish va psixologik holatga ega bo’lgan shaxslar sifatida qaralishi lozim. Shu bois, har bir o’quvchi uchun mos metodikalar tanlanishi kerak. Zamonaviy pedagogika bu borada kommunikativ, faoliyatga asoslangan, interaktiv va muammoli o’qitish yondashuvlarini taklif etadi.

**2. Kommunikativ metodning samaradorligi.** Xorijiy til o’rgatishda kommunikativ yondashuv markaziy o’rin tutadi. Ushbu metod asosida o’quvchilar real hayotdagi muloqotga tayyorlanadi, ya’ni tilni amaliy jihatdan qo’llashga urg’u beriladi. Bu metod nafaqat lug’at va grammatikani, balki nutq

madaniyatini, eshitish, tushunish, o‘qish va yozish kabi barcha ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**3. Interaktiv metodlar va texnologiyalar.** Zamonaviy ta’limda interaktiv usullardan – rolli o‘yinlar, debatlar, guruhiy ishlanmalar, multimedia vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va nutqiy faollikka undaydi. Shu bilan birga, onlayn platformalar (Zoom, Moodle, Quizlet) yordamida masofaviy ta’lim imkoniyatlari ham kengaydi.

**4. Motivatsiya va psixologik yondashuv.** Til o‘rganishda ichki va tashqi motivatsiyaning roli katta. O‘quvchining tilga bo‘lgan ijobiy munosabati, o‘rgatish jarayonida o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi roli, maqsadga yo‘naltirilgan vazifalar motivatsiyani oshiradi. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, shaxsning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til o‘rganish jarayonida bu aloqalar pedagogik muloqot orqali shakllanadi.

Xorijiy tillarni o‘rgatishda pedagogikaning o‘rnii nihoyatda muhim bo‘lib, bu fan til o‘rganish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi. Kommunikativ yondashuv, interaktiv usullar, texnologik vositalar va shaxsga yo‘naltirilgan metodlar til o‘rganishni samarali va foydali jarayonga aylantiradi. Shu bois, har qanday xorijiy tillarni o‘rgatishga qaratilgan ta’limiy jarayon pedagogikaning asosiy tamoyillariga tayanadi. Bunday metodik yondashuvlar esa ta`limning samarali natijasi uchun xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov B.B. (2020). Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. – B. 45–67.
2. Allamuratova G.Sh. (2018). Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. Samarqand: SamDU nashriyoti. – B. 102-115.
3. Hasanov R.A. Til o‘rganishda kommunikativ yondashuvning samaradorligi. – Ilmiy maqolalar to‘plami, 4(2), 2019. – B. 23-29.
4. Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press. – Pp. 86-91.